



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




No9(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 522 sahifa,
2-sentyabr, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

O'smirlarda hissiy bezovtalikning psixologik determinantlari sifatida o'z-o'zini baholash va o'ziga munosabat xususiyatlari.....	10
Ibraymova Altinay Esemuratovna	
Bo'lajak pedagoglar shaxsiyatida ksenofobiya xavfi: kasbiy deformatsiya omillari va uning pedagogik faoliyatga ta'siri	16
Abdiraximova Dildora Begimkulovna	
Biologiya ta'limida sun'iy intellektdan foydalanish: didaktik imkoniyatlar, muammolar va metodik yechimlar.....	20
Raxmatov Uchkun Ergashevich	
Talabalarda mediasavodxonlik va tanqidiy fikrlash o'rtasidagi psixologik bog'liqlik.....	28
Adizova Muxabbat Muxitdinovna	
Oliy ta'lim rahbar-kadrlarida stressogen vaziyatlarni boshqarishning pedagogik-psixologik o'ziga xos jihatlari	32
Sultonov Mansur G'aniyevich	
Boshlang'ich ta'limda individual yondashuv orqali o'quvchilarning ta'lim natijalarini yaxshilash	37
Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Bo'tayeva Saodat Xudoyor qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarning raqamli resurs bazasini yaratish kompetensiyasi: tuzilma va mezonlar.....	41
Qo'qonboyeva Durdona Faxriddin qizi	
Biologiyani o'qitishda zamonaviy ta'lim metodlari.....	44
Joldasbayeva Gulchexra Maksetbayevna	
Organik fotoelementlarning moslashuvchanligini oshirish.....	49
Jalolova Pokiza Muzaffarovna	
Dzyudo sport turida texnik tayyorgarlikni takomillashtirishda maxsus mashqlardan foydalanish samaradorligi.....	54
Ko'palov Sanjar Ulug'bekovich	
Interactive Methods for Developing Sociolinguistic Competence in Higher Education	59
Baxramova Diyora Sanjar qizi	
Texnika yo'nalishi talabalarini ishlab chiqarish muhitiga tayyorlashda CDIO va sanoat korxonalari hamkorligining pedagogik imkoniyatlari	66
Gaffarov Xasan Ravshanovich	
Onkologik bemorlarga tashxisni bildirish madaniyati va uning psixologik oqibatlar (O'zbekiston misolida)...	70
Jonpo'lotova Manzura Jahonovna	
Malaka oshirish jarayonida rahbar-kadrlarning SOFT-kompetensiyalarini rivojlantirish samaradorligi.....	75
Axrrova Umida Xamidullayevna	
Refleksiv ta'lim muhitida o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini rivojlantirishning didaktik parametrlari tizimi	81
Sadikova Shaxnoza Ulug'bek qizi	
Loyihaviy faoliyat asosida talabalarda mustaqil ta'lim kompetensiyalarini shakllantirish mexanizmlari	87
Jabborov Toxirjon Maqsudali o'g'li	
Biologiya fanini o'qitishda biologiya (maxsus pedagogika: logopediya) yo'nalishi talabalarining tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	91
Hakimova Musharraf Fozilovna, Hasanova Zebo Davlatovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda bolalar adabiyotining didaktik imkoniyatlari	96
Homiyatova Mavluda Amon qizi	
Boshlang'ich sinflarda raqamli ta'lim muhitini yaratish va interaktiv metodlardan foydalanish.....	101
Karimova Nargiza Raximovna	
Maktabgacha ta'limda raqamli texnologiyalar asosida bolalarning soft skillsini rivojlantirish: interaktiv va sun'iy intellektga asoslangan yondashuvlar	109
Mamatqulova Nozimaxon Shavkat qizi	



Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida innovatsion pedagogik faoliyat ko'nikmalarini rivojlantirish: kvazi-eksperimental tadqiqot.....	116
Nozimabonu Tojiboyeva	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining axborotni tekshirish va dalillarga asoslangan xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	124
Abduraxmonova Gulandam Anvarjonovna	
Funksional yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini takomillashtirishning ustuvor jihatlari.....	130
Safarov Dilmurod Zoirovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv faoliyati samaradorligini oshirishda o'qish savodxonligining ahamiyati	135
Turg'unboyev Sirojiddin Faxriddinovich	
Sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish asosida matematika fanini o'qitishda o'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirish metodikasi.....	140
Sultonova Shahnoza Yusuf qizi	
Boshlang'ich sinflarda ingliz tili o'qitish metodikasini yosh omili asosida takomillashtirish.....	147
Akhmadaliyeva Nargizakhon Abdumalik qizi	
Tengdoshlar bilan munosabat sifatiga oilaviy muhitning bilvosita ta'siri	153
Baratullayeva Dilnoza Xabibullo qizi	
Bolalar kiyimlari va ular bilan bog'liq urf-odatlar (Buxoro vohasi misolida).....	156
G'iyosova Zarina Yusuf qizi	
Bo'lajak biologiya o'qituvchilarining kasbiy-metodik kompetentligi rivojlanganlik darajalarini kvalimetrik shkala asosida baholash	160
Niyozova Shahlo Abdusaitovna	
Bionika asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda ixtirochilik qobiliyatlarini rivojlantirishning samarali metodlari	167
Jumaboyeva Maxliyo Rashidbek qizi	
Talabalarning bilish faolligini oshirishning pedagogik mexanizmlari.....	172
Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi	
Kredit-modul ta'lim tizimida talabalar mustaqil ta'limini neyropedagogik yondashuv asosida tashkil etishning pedagogik-didaktik tamoyillari.....	178
Farrux O'. Ibragimov	
Kichik maktab yoshdagi bolalarning o'quv faoliyatiga moslashishining pedagogik-psixologik xususiyatlari	185
G'ofurova Madina Ikromjon qizi	
Rashk muammosining ijtimoiy-psixologik mazmun-mohiyati.....	189
Ummatova Sitora Shavkatulloyevna	
Bo'lajak o'qituvchilarda axborotni tanqidiy tahlil qilish ko'nikmasini rivojlantirishning ilmiy-nazariy aspektlari	196
Salayeva Sitora Serali qizi	
Nabi Jaloliddin ijodida tarixiy tafakkur va zamonaviylik uyg'unligi	201
Matchanova Mastura Baxrom qizi	
Geometriyani o'qitishda interaktiv metodlardan foydalanish	205
Sultonova Dilrabo Yusuf qizi	
ESP ta'limida syllabus design va uning arxitektura-qurilish yo'nalishlaridagi ahamiyati.....	210
Xayitova Dilnoza Bahtiyorovna	
Цифровизация и глобализация как факторы трансформации французского языка в XXI веке	214
Давронова Зульфия Бобоевна	
Key Highlights of a Dialect for Extraordinary Purposes.....	219
Berdiyeva Mekhriniso Kholmammatovna	
Transformatsion liderning maktabgacha ta'lim tizimidagi strategik va pedagogik ahamiyati.....	223
Mustafoev Maqsudbek Olim o'g'li	

Milliy komponentlarga asoslangan tasviriy san'at ta'limining asosiy metodik tamoyillari.....	227
Baltayeva Xalima Toraboyevna	
Arxitektura ta'limida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning kompetensiyaviy modeli	231
Abduvosiqova Dilafruz Djalaliddinova	
Bo'lajak tarix o'qituvchisi pedagogik-psixologik tayyorgarligining nazariy-konseptual modeli	236
Toshpo'latova Shaxnoza Shuhratovna	
The Impact of the Flipped Classroom Model in Uzbek Secondary Schools: Participation and Engagement	240
Khamidova Shabnam Gulakhmadovna	
Sharq va G'arb pedagogik an'analarida sun'iy intellekt vositasida tarbiya jarayonini transformatsiyalash: qiyosiy tahlil va metodologik yondashuvlar.....	244
Jamolova (G'anijonova) Mushtariybegim Bobirjon qizi	
Sport tayyorgarligi tizimida trenerlar faoliyatining mazmuni, tuzilishi va zamonaviy talablari	249
Ismailova Dildora Qudratullayevna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni son sanoqqa o'rgatishda didaktik vizual vositalarning turlari va ularning pedagogik ahamiyati.....	255
Kushakova Gulnora Egamqulovna, Valiyeva Sabina Shavkat qizi	
Bo'lajak tarbiyachilarning kognitiv-integrativ mobilligi, mohiyati va tarkibiy komponentlari.....	262
Mirzayeva Kamola Ikrom qizi	
Kursantlarda kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirishda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning psixologik-pedagogik ahamiyati.....	267
Shermatova Nazokat Safarovna	
PISA topshiriqlari asosida 5-sinf o'quvchilarining ilmiy tadqiqotlarni loyihalash kompetentsiyasini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari.....	271
Zulayxo Mamajanova	
Лингводидактические основы развития письменной речи студентов на материале жанра травелога	275
Тахирова Маъсуда Абдужаббор кизи, Хазраткулова Мохира Азизбековна	
Migrant oilalarning bola psixikasiga ta'siri	280
Baxtiyor Odilovich Saidov	
Трансформация рекламного дискурса в социальных сетях.....	284
Икрамова Мунира Маруфжановна	
Bo'lajak biologiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini oshirishda web-platformalardan foydalanish modeli.....	289
Akramova Mohinabonu Mirg'olib qizi	
Teaching Translation Equivalence Through Comparative Analysis of Simultaneous and Written Translation: An Experimental Study in Uzbek-English Translation Education.....	294
Iskandarova Risolat Ravshanbekovna	
Oliy ta'limda falsafa fanini o'qitishning ahamiyati va dolzarbligi	299
Ismadiyrov Komil Maxamadiyrovich	
Anorganik kimyoda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan pedagogik tajriba-sinov ishlarining matematik-statistik tahlil natijalari.....	304
Boboyarova Nilufar Saydullayevna	
Maktabgacha yoshdagi duduqlanuvchi bolalar nutq nuqsonlarini qo'g'irchoq teatri asosida bartaraf etish texnologiyalarini takomillashtirish	310
Xasanbayeva Gulbahor Nasrullayevna, Arslanova Madina Mansurovna	
Musiqqa o'qituvchilarida cholg'u ijrochilik ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish (fortepiano asarlari misolida)	313
Rahimberganova Zuhra Shuxrat qizi	
Yosh xodimlarni kasbga moslashtirishda zamonaviy pedagogik metodlarning o'rni va ahamiyati	317
Adilov Baxadir Tanatarovich	



Bo'lajak o'qituvchilarni millatlararo muloqot madaniyatini rivojlantirishga tayyorlashning diagnostik mezonlari va ko'rsatkichlari	321
Atamuratov Dilshod	
Концептуальные основы развития навыков академического вокального исполнительства у студентов образовательных программ по направлению "Музыкальное образование"	325
Ахмедова Чарос Ильхомовна	
Muammoli ta'lim orqali o'quvchilarning kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari	332
Bekchanova Sabohat Matrasulovna	
Ixtisoslashtirilgan va ijod maktablari direktorlari kreativ salohiyatining tarkibiy tuzilmasi va baholash mezonlari	338
G'aniyeva Zarina Itolmas qizi	
Maktabgacha ta'limda inklyuziv muhitni shakllantirish: mavjud muammolar va innovatsion pedagogik yechimlar	342
Gulyamova Aziza Otabek qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy madaniyatshunoslik kompetensiyasini shakllantirish metodikasi	346
Komiljonova Mohinur Allabergan qizi	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida talabalarning global kommunikativ motivatsiyasini shakllantirish: pedagogik yondashuvlar	350
Qoravoyeva Shoir Zafarjon qizi	
Tafakkur muammosining pedagogik va psixologik asoslari	353
Shixova Inobat Omonovna	
Integral yondashuv asosida bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy tayyorlashda xorij tajribasi	358
Usmanova Shaxnoza Baxodirovna	
Arab tilidagi akademik matnlarni o'qib tushinishda sun'iy intellektdan foydalanishning metodik imkoniyatlari	363
Xalilova Hilola Sharopovna	
Pedagogika ta'lim yo'nalishi talabalarida deontologik kompetentlikning mazmuni, tarkibiy komponentlari va funksiyalari	368
Yaqubova Donoxon Xo'janazar qizi	
Kognitiv yondashuv asosida sonning butun va kasr qismi qatnashgan tenglamalarni o'qitish metodikasi ...	372
Boboqulova Munisa Shavkat qizi	
Ta'lim sifatini monitoring qilishda elektron tizimlardan foydalanish samaradorligini oshirish: amaliy muammolar va takomillashtirish modeli	376
Oripova Shahzoda Zafarjon qizi	
Специфика подготовки фигуристов-одиночников на тренировочном этапе	380
Тохинова Шохсанам Фарход кизи	
Talabalarning Speaking ko'nikmasini rivojlantirishda zamonaviy raqamli platformalardan foydalanish	385
Rasulova Moxira Abdusalilovna	
Umumta'lim jarayoni uchun milliy dastur yaratish hamda amaliyotga joriy etish nazariyasi	388
Qurbonova Zebiniso Mamarajab qizi	
Ta'lim muassasasi rahbarining raqamli kompetentligi mazmuni va tarkibiy komponentlari	394
Shakadirova Nigora Irgashevna	
Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashda ijodkorlikni rivojlantirish: xorijiy tajriba va milliy model	398
Shabbazova Nodira Xamzayevna	
Мотивация к изучению английского языка у старшеклассников: теоретико-методологические основы, факторы и педагогические условия	403
Хаджиметова Дилноза Рахимовна	
Milliy hunarmandchilik vositasida uyushmagan xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari	408
Baxronova Shoir Yadorovna	



O'rta masofaga yuguruvchilarning jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari tuzilishi	415
Botirova G. B.	
Radioelektron qurilmalarni konstruksiyasi va loyihalash fanini o'qitishda virtual-real laboratoriya mashg'ulotlarining integratsiyalashgan metodik modeli	421
Baymatova Nargiza Tuxtabayevna	
Gender yondashuvi asosida o'quvchilarning huquqiy madaniyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	427
Tojiboyeva Gulchexra Sadriddinovna	
Raqamli avlod o'quvchilarida axloqiy dunyoqarashni tarix ta'limi orqali shakllantirishning pedagogik mexanizmlari	437
Ahmedov Nodir Kodiraliyevich	
Zo'ravonlik tajribasini boshdan kechirgan bolalarda koping-strategiyalarining shakllanishining ijtimoiy-psixologik mexanizmlari	443
Komilova Komila Inomjon qizi	
Talabalar ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda ijtimoiy tarmoqlarning pedagogik imkoniyatlari va nazariy-metodologik tahlili	446
Abdurahmonova Shaxodat Faxridin qizi	
Kredit-modul tizimida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil talim olish imkoniyatlarini takomillashtirish modeli	453
A. X. Eshqorayev, M. Q. Urozov, Q. A. Eshqorayev	
Muhandislik kasbini shakllantirishda tasviriy san'at fanining o'rni va ahamiyati	456
Fazliddinova Gulasal Farhod qizi	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida axborot texnologiyalarini o'qitish uchun kompetensiyaga yo'naltirilgan adaptiv metodik tizim: kvazi-eksperimental tadqiqot dalillari	461
Mamajanov Raxmatilla Yakubjanovich, Xolbekov Abdusattor Maxammatovich	
Malakali voleybolchi qizlarning texnik tayyorgarligini takomillashtirish masalalari	470
Odilova Feruza	
Zamonaviy ta'lim muhitida talabalarning kasbiy-etik va muloqot madaniyatini rivojlantirishning amaliy holati va mavjud muammolar	477
Perdeshova Nargiza Yesenbayevna	
5–6 yoshli bolalarning ingliz tili mashg'ulotlarida kreativ faoliyatini baholash: montessori tamoyillariga mos diagnostik rubrika loyihasi	482
Sadoqat Karimova Abduxamidovna	
"Ilk qadam" davlat o'quv dasturining 3-nashri asosida bolalarning ijodiy va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish	489
Tursunova Kamolaxon Ulug'bek qizi	
Maktabgacha ta'lim jarayonida rivojlanish sohalarining o'zaro integratsiyasini ta'minlashga innovatsion yondashuvlar	495
Yigitaliyeva Gullola Mirobil qizi	
Temperament fenomenining evolyutsiyasi va ilmiy talqinlari	498
Dilmurodova Zilola Davron qizi	
Integrativ yondashuv asosida ingliz tili darslarida debat texnologiyasi orqali kreativ fikrlashni rivojlantirish ...	502
Abdulaxatova Shohsanam Adhamjon qizi	
SMART-SL metodikasi asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish	506
Shabdullayeva Lazokatxon Orifbekovna, Zumakova Dilbarxon	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligi komponentlari va ularning vazifaviy tavsifi ...	511
Shakarova Nilufar Zuvaydullayevna	
Diskret vaqtli seir epidemik model dinamikasi	516
Shukurova Shahnoza Sayfiddin qizi	



“ILK QADAM” DAVLAT O‘QUV DASTURINING 3-NASHRI ASOSIDA BOLALARNING IJODIY VA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Tursunova Kamolaxon Ulug‘bek qizi

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori,
oliy toifali direktor o‘rinbosari, mentor

Andijon viloyati Xonobod shahar 5-sonli DMTT
tursunova.0612@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning ijodiy va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturining 3-nashri mazmuni asosida ilmiy-metodik jihatdan tahlil etiladi. Tadqiqotda maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy fikrlashi, mustaqil tanlov qilishi, muammoli vaziyatlarga yechim topishi, o‘z g‘oyalarini obrazli va nutqiy shaklda ifodalashi, tengdoshlari hamda kattalar bilan samarali muloqotga kirishishi kompetensiyaviy rivojlanishning muhim ko‘rsatkichlari sifatida talqin qilinadi. Dasturda ko‘zda tutilgan faoliyatga yo‘naltirilgan, shaxsga yo‘naltirilgan va rivojlantiruvchi muhitga asoslangan yondashuvlarning ijodiy hamda kommunikativ rivojlanish bilan uzviy aloqasi ochib beriladi. Maqolada faoliyat markazlari, syujetli-rolli o‘yinlar, sahnalashtirish, ijodiy topshiriqlar, muammoli vaziyatlar, suhbat va kichik guruhlardagi hamkorlik faoliyatining pedagogik imkoniyatlari asoslanadi. Shuningdek, tarbiyachining bolaga tayyor yechimni taqdim etuvchi emas, balki uning tashabbusi, mustaqil fikrlashi va muloqotdagi faolligini qo‘llab-quvvatlovchi pedagog sifatidagi roli yoritiladi. Natijalar ijodiy va kommunikativ kompetensiyalarni alohida emas, balki yagona rivojlantiruvchi jarayon sifatida tashkil etish bolaning mustaqil fikrlashi, ijodiy tashabbusi, nutqiy faolligi, hamkorlik ko‘nikmalari va ijtimoiy moslashuvchanligini kuchaytirishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi, uchinchi nashr, maktabgacha ta’lim, ijodiy kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, kompetensiyaviy yondashuv, ijodiy fikrlash, mustaqil fikrlash, nutqiy faollik, muloqot, rivojlantiruvchi muhit, faoliyat markazlari, syujetli-rolli o‘yin, hamkorlik, ijodiy tashabbus.

Abstract: This article analyzes the issue of developing children’s creative and communicative competencies in preschool educational organizations scientifically and methodologically based on the content of the 3rd edition of the State Curriculum for Preschool Educational Organizations of the Republic of Uzbekistan “First Step”. The study interprets the ability of preschool children to think creatively, make independent choices, find solutions to problem situations, express their ideas in figurative and verbal form, and enter into effective communication with peers and adults as important indicators of competency development. The inextricable link between the activity-oriented, person-oriented and developmental environment-based approaches envisaged in the program and creative and communicative development is revealed. The article is based on the pedagogical possibilities of activity centers, plot-role-playing games, staging, creative tasks, problem situations, conversation and cooperative activities in small groups. It also highlights the role of the educator as a pedagogue who supports the initiative, independent thinking and communication activity of the child, rather than providing a ready-made solution. The results show that organizing creative and communicative competencies as a single, rather than separate, developmental process strengthens the child’s independent thinking, creative initiative, speech activity, cooperation skills and social adaptability.

Key words: “First Step” state curriculum, third edition, preschool education, creative competence, communicative competence, competency-based approach, creative thinking, independent thinking, speech activity, communication, developmental environment, activity centers, plot-role-playing game, cooperation, creative initiative.



Аннотация: В данной статье научно-методологически анализируется вопрос развития творческих и коммуникативных компетенций детей в дошкольных образовательных организациях на основе содержания 3-го издания Государственного учебного плана для дошкольных образовательных организаций Республики Узбекистан “Первый шаг”. В исследовании рассматривается способность детей дошкольного возраста мыслить творчески, делать самостоятельный выбор, находить решения проблемных ситуаций, выражать свои идеи в образной и вербальной форме, а также вступать в эффективное общение со сверстниками и взрослыми как важные показатели развития компетенций. Выявляется неразрывная связь между предусмотренными в программе деятельностно-ориентированным, личностно-ориентированным и развивающим средовым подходами и творческим и коммуникативным развитием. В основе статьи лежат педагогические возможности интерактивных центров, сюжетно-ролевых игр, постановочных занятий, творческих заданий, проблемных ситуаций, бесед и совместной работы в малых группах. Исследование также подчеркивает роль педагога как защитника инициативы, самостоятельного мышления и коммуникативной активности ребенка, а не предлагает готовое решение. Результаты показывают, что организация творческих и коммуникативных компетенций как единого, а не раздельного, процесса развития укрепляет самостоятельное мышление ребенка, творческую инициативу, речевую активность, навыки сотрудничества и социальную адаптивность.

Ключевые слова: государственная учебная программа “Первый шаг”, третье издание, дошкольное образование, творческая компетентность, коммуникативная компетентность, компетентностный подход, творческое мышление, самостоятельное мышление, речевая активность, коммуникация, развивающая среда, центры деятельности, сюжетно-ролевая игра, сотрудничество, творческая инициатива.

KIRISH

Maktabgacha yosh davri bolaning shaxsiyati, tafakkuri, nutqi, hissiy-irodaviy sifatlari va ijtimoiy munosabatlarining jadal shakllanishi bilan tavsiflanadi. Mazkur davrda bolaning atrofdagi hodisalarga qiziqishi, savol berishi, taqlid qilishi, yangi vaziyatlarni sinab ko'rish, o'z fikrini bildirishga intilishi va tengdoshlari bilan faol munosabatga kirishishi keyingi ta'lim bosqichlari uchun muhim poydevor yaratadi. Shuning uchun maktabgacha ta'limda natijadorlikni faqat bolaning ma'lum bilimlarni eslab qolishi bilan emas, balki bilim, ko'nikma, munosabat va qadriyatlarni real faoliyatda namoyon eta olishi bilan baholash zarur.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bugungi maktabgacha ta'limda kompetensiyaviy yondashuvning kuchayishi bolaning faol subyekt sifatidagi mavqeini mustahkamlashni talab qilmoqda. “Ilk qadam” davlat o'quv dasturining 3-nashri ham maktabgacha ta'lim mazmunini zamonaviy ehtiyojlar, xalqaro tajriba va amaliyotdagi o'zgarishlar asosida takomillashtirishga qaratilgan.

2025-yilda taqdim etilgan 3-nashrning ishlab chiqilishida milliy normativ-huquqiy asoslar, xalqaro tajriba va maktabgacha ta'lim pedagoglari bilan hamkorlikdagi o'rganishlar hisobga olingani qayd etilgan ^[1]. Mazkur yangilanishlar bolaning individual ehtiyojlari, moslashuvchanligi, tanqidiy va ijodiy fikrlashi, ijtimoiy hamda kommunikativ rivojlanishiga e'tiborni kuchaytiradi.


Ijodiy kompetensiya bolaning tayyor namunani takrorlashi emas, balki mavjud tajribaga tayangan holda yangi g'oya, obraz, yechim yoki faoliyat usulini yaratishi bilan namoyon bo'ladi. Maktabgacha yoshdagi bola uchun ijodkorlik rasm chizish yoki qo'l mehnati bilangina chegaralanmaydi. Hikoyani davom ettirish, o'yinga yangi syujet kiritish, buyumlardan noodatiy foydalanish, muammoli vaziyatga turli yechimlar taklif qilish, musiqa yoki harakat orqali obraz yaratish ham ijodiy faoliyatning shakllari hisoblanadi. Ijodiy kompetensiyani rivojlantirish bolaga “to'g'ri javob”ni topishni emas, balki turli imkoniyatlarni ko'ra olishni o'rgatishga yo'naltirilishi lozim.

Kommunikativ kompetensiya esa bolaning o'z fikrini tushunarli ifodalashi, suhbatdoshni tinglashi, savol berishi, javob qaytarishi, vaziyatga mos nutqiy vositalardan foydalanishi, o'zaro kelishishi va hamkorlik qilishi bilan belgilanadi. Demak, kommunikativ rivojlanish faqat lug'at boyligi yoki gap tuzish qobiliyatidan iborat emas; u tinglash, anglash, munosabat bildirish, muloqot qoidalariga rioya qilish va ijtimoiy vaziyatda o'zini boshqara olishni ham qamrab oladi.

Maqolaning maqsadi – “Ilk qadam” davlat o'quv dasturining 3-nashri asosida maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash, ularni o'zaro integratsiyalashgan holda tashkil etishning samarali shakl va metodlarini ilmiy-metodik jihatdan asoslashdan iborat.



Mazkur maqsaddan kelib chiqib, dastur mazmunidagi rivojlantiruvchi imkoniyatlarni tahlil qilish, ijodiy va kommunikativ faoliyatning o'zaro aloqasini ochib berish hamda tarbiyachi faoliyatiga doir amaliy tavsiyalar ishlab chiqish vazifalari belgilandi.



1-rasm: “Ilk qadam” davlat o'quv dasturining 3-nashri asosida ijodiy va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish modeli.

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Tadqiqotning metodologik asosini kompetensiyaviy, faoliyatga yo'naltirilgan, shaxsga yo'naltirilgan va integrativ yondashuvlar tashkil etdi. Kompetensiyaviy yondashuv bolaning egallagan bilimlarini amaliy faoliyatda qo'llay olishiga, faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv esa bilim va ko'nikmalarning tabiiy faoliyat jarayonida shakllanishiga e'tibor qaratadi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv har bir bolaning qiziqishi, ehtiyoji, rivojlanish sur'ati va individual imkoniyatlarini hisobga olishni nazarda tutadi. Integrativ yondashuv esa nutqiy, bilish, ijodiy, ijtimoiy va emotsional rivojlanish yo'nalishlarini o'zaro bog'liq holda tashkil etish imkonini beradi.

Tadqiqotda “Ilk qadam” davlat o'quv dasturining 3-nashri mazmunini tahlil, pedagogik kuzatish, faoliyat mahsullarini o'rganish, suhbat, taqqoslash va umumlashtirish metodlari asosida ko'rib chiqildi. Dasturdagi faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv hamda faoliyat markazlarining imkoniyatlari ijodiy va kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish nuqtayi nazaridan talqin qilindi. Ilmiy adabiyotlarda ijodkorlikning bola rivojidagi o'rni, muloqotning shaxs shakllanishiga ta'siri va o'yin faoliyatining pedagogik imkoniyatlari haqidagi qarashlar nazariy asos sifatida olindi [2; 3; 4].

Ijodiy kompetensiyani rivojlantirish uchun ochiq turdagi topshiriqlardan foydalanish metodik jihatdan muhim deb belgilandi. Bunday topshiriqlar birgina javob bilan cheklanmaydi va bolaga o'z g'oyasini mustaqil tanlash imkonini beradi. Masalan, “Berilgan materiallardan qanday yangi buyum yaratish mumkin?”, “Hikoyaga boshqa yakun top”, “Qahramonga yordam berishning yana qanday yo'llari bor?”, “Rasm asosida o'zing hikoya tuz” kabi vazifalar bolaning tasavvuri va divergent fikrlashini faollashtiradi. Bunda pedagog natijadan ko'ra bolaning izlanish jarayoniga, fikrni asoslashiga va yangi variantlarni sinab ko'rishiga e'tibor qaratadi.

Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish uchun dialogik va monologik nutqni rag'batlantiruvchi vaziyatlar yaratish ko'zda tutiladi. Juftlikdagi suhbat, kichik guruhdagi muhokama, rolli o'yin, sahnalashtirish, ertak qahramonlari nomidan gapirish, “savol-javob zanjiri”, voqeani ketma-ket bayon qilish va tengdoshining fikrini davom ettirish kabi usullar bolaning faol muloqot tajribasini kengaytiradi. Muhimi, muloqot topshiriqlari sun'iy emas, bolaning real qiziqishi va faoliyati bilan bog'langan bo'lishi kerak.

Tadqiqotda rivojlantiruvchi muhit ham alohida mezon sifatida qaraldi. Muhit bolaga tanlash, kuzatish, tajriba o'tkazish, yaratish, xatodan qo'rqqmasdan qayta urinib ko'rish va o'z faoliyatini tengdoshlari bilan muhokama qilish imkonini bergandagina kompetensiyaviy rivojlanishga xizmat qiladi. Shu bois faoliyat markazlari faqat jihozlar saqlanadigan joy emas, balki bolalar mustaqil faoliyatining pedagogik tashkilotchisi sifatida qaralishi lozim.



2-rasm: Faoliyat markazlari orqali ijodiy va kommunikativ kompetensiyalar integratsiyasi

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlil natijalari ijodiy va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida faoliyat markazlarining imkoniyatlaridan kompleks foydalanish yuqori metodik ahamiyatga ega ekanini ko'rsatdi. "Til va nutq" yo'nalishidagi faoliyatlar bolaning lug'at boyligini kengaytirish, savol-javobga kirishish, voqeani izchil bayon qilish va suhbatdoshini tinglashiga sharoit yaratadi. Biroq bu faoliyatlarni faqat nutqiy mashqlar bilan cheklamasdan, ularga ijodiy komponent kiritish samaraliroqdir. Masalan, bola rasm asosida hikoya tuzishi, hikoya qahramonining xarakterini o'zgartirishi yoki voqeaga yangi personaj kiritishi mumkin.

"San'at" markazida ijodiy kompetensiya ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi. Bola rang, shakl, kompozitsiya va obrazlarni o'z tanloviga ko'ra birlashtirar ekan, estetik did bilan bir qatorda mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmasini ham rivojlantiradi. Agar yaratilgan ish keyinchalik kichik guruhda taqdim etilsa, ijodiy faoliyat kommunikativ rivojlanish bilan birlashadi: bola o'z ishini nomlaydi, nima sababdan shunday tasvirlaganini tushuntiradi, tengdoshlarining savollariga javob beradi va boshqa bolalarning ishiga munosabat bildiradi.


"Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish" yo'nalishi ikki kompetensiyani integratsiyalash uchun eng qulay pedagogik makonlardan biridir. O'yin jarayonida bola rolni tanlaydi, obrazni tasavvur qiladi, o'yin syujetini davom ettiradi va boshqa ishtirokchilar bilan kelishadi. Masalan, "Do'kon", "Shifoxona", "Mehmon kutish", "Sayohat", "Kasblar olami" kabi syujetlarda bolalar nafaqat tegishli so'z va iboralarni qo'llaydi, balki navbat kutish, sherigini tinglash, kelishish, muammoni birgalikda hal qilish kabi ijtimoiy-kommunikativ harakatlarni ham bajaradi.

"Qurish, konstruksiyalash va matematika" faoliyatlarida ham ijodkorlik uchun katta imkoniyat mavjud. Tayyor namunani aynan takrorlash o'rniga "o'zing loyihala", "ikki xil usulda qur", "qurilmangga nom ber", "uni boshqalarga tushuntir" kabi topshiriqlar berilsa, bola rejalashtirish, taqqoslash, muammoni hal qilish va natijani izohlash ko'nikmalarini birgalikda egallaydi. Bu jarayonda matematik tasavvurlar nutqiy va ijodiy faoliyat bilan tabiiy ravishda bog'lanadi.

"Fan va tabiat" faoliyatida kuzatish va tajriba asosida savol qo'yish, taxmin qilish va xulosa chiqarish imkoniyatlari keng. Tarbiyachi "Nima bo'ladi?", "Nima uchun shunday deb o'ylaysan?", "Buni qanday tekshirish mumkin?" kabi savollar orqali bolani fikrini og'zaki ifodalashga undaydi. Bola tajriba natijasini izohlashga harakat qilgan sari sabab-oqibat aloqalarini anglash, o'z fikrini asoslash va muloqotga kirishish tajribasi boyiydi.

Natijalarning yana bir muhim jihati shundan iboratki, kompetensiyalarni rivojlantirishda pedagogik muhitning emotsional xavfsizligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bola o'z fikri noto'g'ri chiqishidan qo'rqsa, ijodiy tashabbus susayadi; tengdoshlari tomonidan mazax qilinishidan xavotir olsa, muloqotdan chekinadi. Shu sababli pedagog xatoni muvaffaqiyatsizlik sifatida emas, izlanishning tabiiy qismi sifatida qabul qilishi, bolalarning turlicha javoblarini qadrlashi va bir-birini tinglash madaniyatini shakllantirishi zarur.

Tarbiyachining savol berish texnikasi ham natijadorlikka bevosita ta'sir ko'rsatadi. "Bu nima?" kabi yopiq savollardan tashqari "Buni yana qanday qilish mumkin?", "Seningcha, qaysi variant yaxshiroq?", "Agar voqea boshqacha kechganida nima bo'lardi?" kabi ochiq savollarni ko'paytirish bolaning fikrlash doirasini kengaytiradi. Ochiq savolga javob berish jarayonida bola o'z fikrini tanlaydi, uni ifodalaydi va zarur bo'lsa, boshqalarning fikri bilan taqqoslaydi. Natijada ijodiy va kommunikativ kompetensiyalar bir faoliyatning o'zida birlashadi.



3-rasm: Pedagogik faoliyatning bolalar kompetensiyalarini rivojlantirish mexanizmi.

Ota-onalar bilan hamkorlik kompetensiyalarini mustahkamlashning muhim omili sifatida namoyon bo'ladi. Uyda birgalikda kitob o'qish, hikoyani davom ettirish, oddiy konstruktorlardan yangi shakl yaratish, kundalik voqealarni muhokama qilish, bolaga "Nima uchun?" va "Qanday qilib?" savollarini berish uning fikrlash va muloqot tajribasini boyitadi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila talablari o'zaro uyg'unlashganda bolaning yangi ko'nikmalarni turli vaziyatlarda qo'llash imkoniyati ortadi.

Olingan natijalar "Ilk qadam" davlat o'quv dasturining 3-nashri doirasida ijodiy va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishni alohida mashg'ulotlarning yig'indisi sifatida emas, balki bolaning kun davomida amalga oshiradigan faoliyatlari bilan uzviy bog'liq yaxlit pedagogik jarayon sifatida tashkil etish zarurligini ko'rsatadi. 2025-yilda e'lon qilingan tahlillarda ham 3-nashrning mazmunida tanqidiy fikrlash, moslashuvchanlik, qadriyatlar, ekologik ong, global fuqarolik va kompetensiyalarini rivojlantirishga doir yo'nalishlar kuchaygani qayd etilgan^[1]. Mazkur yo'nalishlar ijodiy va kommunikativ rivojlanishni ham bevosita qo'llab-quvvatlaydi. Ijodkorlikni shakllantirishda asosiy metodik muammo bolaning faoliyatini kattalar tomonidan haddan tashqari boshqarish bilan bog'liq. Agar tarbiyachi har bir rasmning qanday bo'lishini, qurilmaning qaysi shaklda yaratilishini yoki hikoyaning qanday yakunlanishini oldindan belgilab qo'ysa, bola topshiriqni bajaradi, biroq ijodiy qaror qabul qilish imkoniyati kamayadi. Aksincha, maqsad aniq, lekin unga erishish yo'llari ochiq bo'lgan vazifalar bolaning tashabbusini kuchaytiradi. Shu bois pedagogik jarayonda "namunaga aynan moslashtirish"dan ko'ra "g'oyani qo'llab-quvvatlash" tamoyiliga ustuvorlik berish maqsadga muvofiq.

Kommunikativ kompetensiya ham bevosita faoliyatda shakllanadi. Bola boshqa bolalar bilan kelishishga, o'z navbatini kutishga, sherigining fikrini tinglashga va o'z taklifini tushuntirishga majbur bo'ladigan tabiiy vaziyatlar qancha ko'p yaratilsa, kommunikativ tajriba shuncha boyiydi. Shu sababli kichik guruhlar bilan ishlash, juftlikdagi vazifalar va umumiy mahsulot yaratishga qaratilgan topshiriqlar samarali vosita hisoblanadi. Bunda guruhdagi har bir bolaning faol ishtirokini ta'minlash, faqat faol gapiradigan bolalar emas, tortinchoq bolalar uchun ham fikr bildirish imkonini yaratish zarur.

Muhokama jarayonida rivojlantiruvchi muhitning "uchinchi pedagog" sifatidagi imkoniyati ham muhim. Maktabgacha ta'lim makoni bolani mustaqil harakatga undasa, materiallar ochiq va tushunarli joylashtirilsa, turli faoliyat turlarini birlashtirish imkoniyati mavjud bo'lsa, bolaning o'z-o'zini boshqarish va tanlov qilish ko'nikmalari kuchayadi. Shu ma'noda muhitni tashkil etishning o'zi ham kompetensiyaviy yondashuvning amaliy ko'rinishidir.

Ilmiy nuqtayi nazardan, ijodiy va kommunikativ kompetensiyalarini birgalikda rivojlantirishning afzalligi shundaki, bir kompetensiyaning namoyon bo'lishi ikkinchisining shakllanishiga tabiiy sharoit yaratadi. Yangi g'oya yaratgan bola uni boshqalarga tushuntirishga ehtiyoj sezadi; fikr almashgan bola esa suhbat davomida yangi g'oyalarni qabul qiladi va o'z fikrini qayta ko'rib chiqadi. Demak, ijodiy faoliyat muloqot uchun mazmun yaratadi, muloqot esa ijodiy fikrni boyitadi.

Amaliyot uchun quyidagi pedagogik shartlarni ajratish mumkin:

birinchidan, bolaga mustaqil tanlov qilish imkonini beruvchi rivojlantiruvchi muhitni yaratish;

ikkinchidan, ochiq va muammoli topshiriqlar ulushini oshirish;

uchinchidan, kichik guruh va juftlikdagi hamkorlikni tizimli tashkil etish;

to'rtinchidan, ochiq savollar va refleksiv suhbatlardan foydalanish;



bashinchidan, bolaning individual rivojlanish sur'atini hisobga olish;

oltinchidan, ota-onalarni ijodiy-kommunikativ faoliyatni qo'llab-quvvatlashga jalb etish.

Mazkur shartlar uyg'unlashganda dasturdagi kompetensiyaviy maqsadlar real faoliyatga ko'chadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, "Ilk qadam" davlat o'quv dasturining 3-nashri maktabgacha yoshdagi bolalarni faqat ma'lum bilim va ko'nikmalar bilan qurollantirish emas, balki ularning mustaqil fikrlashi, ijodiy tashabbusi, muloqot madaniyati va ijtimoiy faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik imkoniyatlarni kengaytiradi. Ijodiy va kommunikativ kompetensiyalar bolaning kundalik faoliyati, o'yini, tajribasi, suhbatlari va tengdoshlari bilan hamkorligi jarayonida shakllanadi. Shu sababli ularni alohida va qisqa muddatli mashg'ulotlar orqali emas, balki butun ta'lim-tarbiya jarayoniga singdirish metodik jihatdan samaraliroqdir.

Tadqiqot asosida ijodiy va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishning asosiy pedagogik shartlari sifatida rivojlantiruvchi muhitni to'g'ri tashkil etish, faoliyat markazlaridan integrativ foydalanish, ochiq turdagi ijodiy topshiriqlarni ko'paytirish, syujetli-rolli o'yin va sahnalashtirishdan foydalanish, bolalarni kichik guruhlarda hamkorlikka jalb etish, ochiq savollar orqali fikrlashni rag'batlantirish va bolaning har bir tashabbusini pedagogik jihatdan qo'llab-quvvatlash belgilandi.

Eng muhim jihat shundaki, kompetensiyaviy yondashuvda bolaning yakuniy mahsulotidan ko'ra faoliyat jarayonida namoyon qilgan mustaqilligi, tanlovi, muloqoti, izlanishi va refleksiya muhim pedagogik natija hisoblanadi. Demak, tarbiyachining vazifasi bolaning o'rniga qaror qabul qilish emas, balki uning qaror qabul qilishi uchun sharoit yaratishdan iborat. Ana shunday yondashuv maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarish, kommunikativ faolligini oshirish va keyingi ta'lim bosqichlariga moslashuvchan tayyorgarligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan manbalar ro'yxati:

1. Otahanova M.G'. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi (uchinchi nashri) dagi o'zgarishlar // Maktabgacha va maktab ta'limi. – 2025. – 3-jild, 10-son. – B. 16–20.
2. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi. Takomillashtirilgan ikkinchi nashr. – Toshkent, 2022.
3. Qodirova F.R., Toshpo'latova Sh.Q., Kayumova N.M., A'zamova M.N. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: Tafakkur bo'stoni, 2019.
4. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge: Harvard University Press, 1978.
5. Leontiev A.N. Activity, Consciousness, and Personality. – Englewood Cliffs: Prentice-Hall, 1978.
6. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2025-yil 29-avgustdagi 323-son buyrug'i.
7. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" davlat o'quv dasturining uchinchi nashri. – Toshkent, 2025.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №9(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.